

MATNSHUNOS OLIM Y. E. BERTELS VA UNING ILMYI MEROSI

Asqarova Saidaxon

Graduate student of International Islamic Academy Of Uzbekistan 32/7, Khuroson,
Tashkent, 100011. Uzbekistan

E-mail:asqarova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Tanqidiy matn tuzish mexanik yoxud texnik ish bo‘lmay, balki ilmiy tadqiqotning o‘ta murakkab yo‘nalishi va u matnshunosdan bir qator zaruriy bilimlar zahirasini talab qiladi. Y. E. Bertelsning matnshunoslikka doir nazariy qarashlari yangi davr o‘zbek matnshunoslik ilmi uchun nazariy asos bo‘ldi. Ushbu maqolada matnshunos olim Y. E. Bertels va uning ilmiy merosi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Y.E.Bertels, matnshunos, sharqshunos, iranist, Nizomiy, Navoiy.

KIRISH

Y.E. Bertels deyarli qirq yillik ilmiy faoliyat vaqtida Leningrad universiteti, Leningrad Sharq tillari instituti, O‘rta Osiyo davlat universiteti, Moskva sharqshunoslik instituti hamda Moskva davlat universitetida dars bergan. U yerda fors, tojik, turk va o‘zbek tillari hamda adabiyoti tarixidan kurslarini dars bergan. Ta’lim berish bilan bir vaqtida u adabiyotlarni o‘rganish bo‘yicha ulkan ish olib bordi va Sharq filologiyasi sohasida uch yuzdan ortiq ilmiy tadqiqotlarni qoldirdi.

ASOSIY QISM

Yevgeniy Eduardovich

Bertels, taniqli sovet sharqshunosi, o‘z davrining fors, tojik va turkiy tili adabiyotlari bo‘yicha eng yirik mutaxassislaridan biri 1890-yil 26 dekabrda Sankt-Peterburgda (Leningrad) tug‘ilgan. Olim 1918-1920 yillarda Petrograd universitetining Sharq tillari fakultetini tamomlab magistrlik imtihonlarini topshiradi. Shu vaqtning o‘zida Osiyo SSR fanlar akademiyasi muzeyi (hozirgi Sharqshunoslik instituti)ga ilmiy xodim bo‘lib ishga kirdi. U yerda vafotiga qadar o‘ttiz yetti yil uzluksiz ishlagan.

1920-yillarda Bertels Osiyo muzeyi fondidagi tasavvufga oid asarlarning qo‘lyozmalarini o‘rgangan. 1924 yildan 1929 yilgacha u fors va arab tillarida tasavvuf va tasavvuf adabiyotiga bag‘ishlangan 22 ta tadqiqotni nashr etdi¹. Ushbu asarlarda Bertels tasavvufga oid qo‘lyozmalarini tavsiflab bergen, ularning matnlarini talqin

¹ Алиев Г. Ю. Библиография научных трудов чл.-корр. АН СССР Е. Э. Бертельса // Советское востоковедение. – М., 1958. – № 5. – С. 55-64.

qilib, tasavvuf adabiyoti terminologiyasini tahlil qilgan. Attar, Ansoriy, Sanoiy, Baba Kuhi kabi mualliflarning asarlarini o‘rgangan.

1930-yillarning boshidan E. E. Bertelsning ilmiy faoliyati boshqa yo‘nalishga ega bo‘ldi. U O‘rta Osiyo va Janubiy Kavkaz sovet respublikalarida milliy-madaniy qurilish jarayonlarida qatnashgan, tadqiqotlar, tanqidiy matnlar va tematik ilmiy to‘plamlarni tayyorlashda, Firdavsiy, Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Nizomiy Ganjavi kabi taniqli shaxslar xotirasiga bag‘ishlangan yubiley tadbirlarini tashkil etishda faol ishtirok etgan. Bu davrda u nafaqat tojik adabiy tilining shakllanishi va sovet tojik adabiyotining shakllanish tarixi bo‘yicha ilmiy, balki ilmiy-ommabop va hatto targ‘ibot maqolalarini nashr etdi, tojik lug‘atlarini tayyorlashda ishtirok etdi, o‘zbek, turkman, ozarbayjon klassik adabiyotlari muammolari bo‘yicha maqolalar chop etdi. Bu davrda Y. E. Bertels fors tili va adabiyotini ommalashtirishga katta e’tibor qaratgan.

Ijtimoiy faoliyat bilan bir qatorda, olim chuqur ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullangan. U Nizomiy Ganjaviy ijodiga 50 dan ortiq maqola bag‘ishlagan¹. Y. E. Bertels Nizomiyni buyuk shoir-gumanist, mutafakkir sifatida tavsiflagan. Uning rahbarligida Nizomiy asarlarining tanqidiy matnlari tayyorlandi. 1947 yilda Y. E. Bertels Nizomiyning “Iskandarnoma” asarini nashr etdi (buning uchun 1948 yilda Davlat mukofoti bilan taqdirlangan²). Shuningdek, u Nizomiy hayoti va ijodi haqida fundamental monografiya yozdi.

Y. E. Bertelsning O‘rta Osiyo mumtoz adabiyotiga bo‘lgan qiziqishi ikki zamondosh shoir – o‘zbek adabiyoti namoyondasi Alisher Navoiy va fors adabiyotining buyuk klassiklarining oxirgisi Abdurahmon Jomiy ijodini ko‘p yillik izlanishlarida namoyon bo‘ldi. Y. E. Bertelsning “Navoiy va Jomiy” (1949) monografiyalari XV–XVI asrlarda Hirot va O‘rta Osiyoning adabiy va madaniy hayotini o‘rganishga katta hissa qo‘shti, bu esa adabiyotlarning fors va o‘zbek tillaridagi o‘zaro ta’sirini ko‘rsatdi. Shunisi e’tiborga loyiqliki, Navoiy va Jomiy matnlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar blokada qilingan Leningradda bo‘lib o‘tgan.

Bertels uchta shoir ijodini qiyosiy o‘rganish natijasida “Iskandar haqidagi roman va uning Sharqdagi asosiy versiyalari³” (1948) monografiyasi paydo bo‘ldi, unda olim Nizomiy, Jomiy va Navoiy xamsasi turkumiga kirgan Iskandar haqidagi dostonlarni o‘rganib chiqdi.

Qo‘lyozma matnlarni tanqidiy tahlil qilish orqali ularni o‘rganish metodikasini ishlab chiqqan Y. E. Bertels “Fors-tojik adabiyoti tarixi” monumental ishini boshladi.

¹ Бертельс, Евгений Эдуардович / Рейнер М. Л., Арапов Д. Ю. // «Банкетная кампания» 1904 – Большой Иргиз. – М.: Большая российская энциклопедия, 2005. – С. 404 – 405.

² Алиев Г. Ю. Библиография научных трудов чл.-корр. АН СССР Е. Э. Бертельса // Советское востоковедение. – М., 1958. – № 5. – С. 55-64.

³ Бертельс, Евгений Эдуардович. Роман об Александре и его главные версии на Востоке. – М., 1948. – 188 с.

U rejalashtirilgan uchta qismdan ikkitasini yozishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu asar qadimgi Eron adabiy yodgorliklarining tavsifini (Avestodan Eron tillaridagi asarlar parchalarigacha), Arab davlatining Eron madaniyatiga ta’siri hamda mo‘g‘ullar istilosidan oldingi davrda fors adabiyoti namunalarining batafsil tavsifini o‘z ichiga oladi.

Olim ko‘plab nashrlarning mas’ul muharriri bo‘lgan. 1950-yillarda Y. E. Bertels Firdavsiyning “Shohnoma” tanqidiy matnini nashr etish ishlarini boshqargan. Uning “Shohnoma” tanqidiy nashrini tayyorlash metodikasi keyinchalik matnshunos-iranistlar A. E. Bertels, R. Aliyev, G. Aliyev, M. N. Osmanov tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanilgan va ular Y. E. Bertels boshlagan ulkan ishni yakunlagan.

Sovet hukumati va ilmiy jamoatchilik tomonidan Bertelsning ajoyib xizmatlari yuqori baholandи. 1928 yilda unga professor unvoni berildi. 1939 yilda u SSSR fanlar Akademiyasining muxbir a’zosi etib saylandi; 1945 yilda Mehnat Qizil bayroq ordeni bilan mukofotlandi; 1948 yilda unga Stalin mukofoti berildi;

1954 yilda Lenin ordeni bilan taqdirlangan¹.

Markaziy Osiyo va Kavkazorti sovet respublikalarining madaniy qurilishida faol ishtirok etib, ilmiy kadrlar tayyorlash va madaniy merosni o‘rganish ishlaridagi yordami uchun Yevgeniy Eduardovich Bertelsga 1944-yil O‘zbekiston SSR ilm-fanining xizmat ko‘rsatgan arbobi, 1946-yil Tojikiston SSR ilm-fanining xizmat ko‘rsatgan arbobi unvonlari berildi.

1951- yil Olimni Turkman SSR fanlar Akademiyasining faxriy a’zosi, 1965-yil O‘zbekiston SSR fanlar Akademiyasining faxriy a’zosi etib saylashdi. 1944-yil Eron fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, 1955-yil Damashqdagi Arab fanlar akademiyasining muxbir a’zosi etib tayinlandi.

Sovet sharqshunoslарining bir necha avlodlari Yevgeniy Eduardovich Bertelsdan o‘qib, uning yangi, faktik materiallarga boy, chuqur ma’noli ma’ruzalarni tingladilar va uning eng qimmatli maslahatlaridan istifoda etdilar.

Yevgeniy Eduardovichning ko‘plab shogirdlari keyinchalik ittifoq respublikalari akademiyalarining fan doktorlari, akademiklari va muxbir a’zolari bo‘lib yetishdilar.

Olim 1957-yil 7-oktabrda Moskvada vafot etdi. Olimning ikki o‘g‘li Dmitriy hamda Andrey Bertelslar ham sharqshunos mutaxassis bo‘lib yetishdilar.

Bertels ijodini o‘rgangan A.N. Boldirev uni quyidagicha tasniflagan:

- fors-tojik adabiyoti tarixi;
- Nizomiy ijodi;
- so‘fiylik;

¹ Бертельс Евгений Эдуардович // Большая советская энциклопедия : гл. ред. А. М. Прохоров. – М.: Советская энциклопедия, 1969 – 1978. – С. 506 – 515.

- Navoiy va uning zamondoshlari;
- Hirot shoirlari ijodi;
- Eron tilshunosligidagi muammolar;
- Turkiy til tilshunosligidagi muammolar¹.

Yevgeniy Eduardovich Bertelsning asarlari Leningrad, Moskva, Ittifoq respublikalari poytaxtlarida va xorijda turli davriy nashrlarda va alohida kitoblarda rus, o‘zbek, tojik, fors, nemis va boshqa tillarda chop etilgan.

Olim vafotidan so‘ng uning ilmiy merosini bir to‘plamga jamlash uchun I.S. Braginskiy boshchiligidagi maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ikki yil davomida olimning nashr etilgan hamda nashr etilmagan ijodini to‘plab 1960-yil Moskvada “Sharq adabiyoti nashriyoti” da – “Bertelsning tanlangan asarlari” nomi ostida 6 tomda chop etildi. Ushbu to‘plam quyidagi mavzularni qamrab olgan:

- 1-tom “Fors-tojik adabiyoti tarixi”

• 2-tom “Nizomiy va Fuzuliy”. Ushbu tomga Nizomiy hayoti va ijodi to‘g‘risida nashr etilmagan katta monografiya hamda Nizomiy va Fuzuliyga bag‘ishlangan maqolalar kiritilgan. Ozarbayjonning ikkita yirik shoiri haqidagi ushbu jildning asarlari tematik jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

• 3-tom “So‘fiylik va so‘fiy adabiyot”. Bu tasavvuf, uning terminologiyasi va ayrim so‘fiy yozuvchilarga bag‘ishlangan maqolalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolalarda Eron va Markaziy Osiyoda so‘fiylikning paydo bo‘lish tarixi, uning rivojlanishi va XVIII asrgacha fors-tojik adabiyotiga ta’siri ochib berilgan. Bu jilda Bertelsning “So‘fiy atamalarining lug‘ati” va “Fuzayl ibn Iyoz” kabi olim hayotlik paytida nashr etilmagan asarlari mavjud.

• 4-tom “Navoiy va Jomiy”. Bu tomga olimning nashr etilgan taniqli “Navoiy” (Moskva, 1948) va “Jomiy” (Stalingrad, 1949) monografiyalari kiradi. Bundan tashqari, olimning Navoiy va Jomiy ijodiga oid maqolalari ham o‘rin olgan. Umuman olganda, bu tom XV asr O‘rta Osiyo xalqlari adabiy hayoti, qardosh xalqlar-tojiklar va o‘zbeklar o‘rtasidagi adabiy munosabatlar haqida keng tasavvur beradi.

• 5-tom “Eron tilshunosligidagi muammolar”. Ushbu tomda fors-tojik adabiyoti tarixi hamda Eron tilshunosligi oid ishlar o‘rin olgan. Bu tomda olim hayotlik chog‘ida nashr etilmagan “Balxlik Hakim Unsuriy” monografiyasi ham mavjud.

• 6-jild “Turkiy til masalalari”. Unga avval nashr etilmagan “O‘zbek adabiyoti tarixi”, turkman adabiyoti bo‘yicha ishlar va boshqalar kiradi.

¹ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – С. 6.

Yevgeniy Eduardovich Bertels bir qancha o‘quv qo‘llanmalar ham ishlab chiqqan edi. Bulardan “Fors tili grammatikasi¹” (Leningrad, 1926), “Fors tili kitobi²” (Leningrad, 1932), “Fors tili adabiyoti tarixi³” (Leningrad, 1928).

XULOSA

Y. E. Bertels 37 yillik ilmiy faoliyati davomida 300 dan ortiq maqola va monografiyalar yozgan (ulardan yarmi fors va turkiy adabiyotga bag‘ishlangan). Olimning bu ishari besh jiddli “Tanlangan asarlar” (1960-1988) ga kiritilgan. Fors va turkiy adabiyotni o‘rganishda ko‘plab yo‘nalishlarning rivojlanishi uning nomi bilan bog‘liq.

Y.E.Bertelsning faoliyati fors-tojik va turkiy adabiyotshunoslikni o‘rganishda muhim bosqichni tashkil etdi. Rossiyada fors-tojik va turkiy klassik adabiyotini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadigan har bir kishi hozirgi kungacha asosan Y.E.Bertelsning asarlariga tayanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Алиев Г. Ю. Библиография научных трудов чл.-корр. АН СССР Е. Э. Бертельса // Советское востоковедение. – М., 1958.
2. Бертельс, Евгений Эдуардович / Рейнер М. Л., Арапов Д. Ю. // «Банкетная кампания» 1904 – Большой Иргиз. – М.:Большая российская энциклопедия, 2005.
3. Бертельс, Евгений Эдуардович. Роман об Александре и его главные версии на Востоке.
4. Бертельс Евгений Эдуардович // Большая советская энциклопедия : гл. ред. А. М. Прохоров. – М.: Советская энциклопедия, 1969 – 1978.
5. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965.
6. Бертельс Е.Э. Грамматика персидского языка. – Ленинград, 1926.
7. Бертельс Е.Э. Учебник персидского языка. – Ленинград, 1932.
8. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1960.

¹ Бертельс Е.Э. Грамматика персидского языка. – Ленинград, 1926. – 127 с.

² Бертельс Е.Э. Учебник персидского языка. – Ленинград, 1932. – 412 с.

³ Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: Наука, 1960. – 145 с.